ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALARNI RIVOJLANTIRUVCHI O'YINGA ASOSLANGAN TA'LIM

Utegenova Ulzira Esbosinovna
Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'irot tumani 32-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rinbosari

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola maktabgacha ta'limda bolalarni rivojlantiruvchi o'yinga asoslangan ta'lim haqida so'z yuritadi va maktabgacha ta'lim uyg'un rivojlangan shaxsni tarbiyalash, bolani butun kelajagini belgilab beradigan bilim va qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirish, ta'lim tashkilotlarida bolalar uchun ijodiy rivojlantiruvchi muhitni yaratish ularning to'laqonli ta'lim olishlarining asosiy omillari hamda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishining muhim vositasi haqida fikr-mulohaza yuritadi va keng ma'lumotlar bayon etadi.
KALIT SO'ZLAR: Maktabgacha ta'lim, bog'cha, bola, o'yin, shaxs, rivojlantirish, tarbiya.
ANNOTATION: This article discusses the game-based education that develops children in preschool education and provides extensive information on how preschool education is the upbringing of a harmoniously developed personality, instilling in the hearts of the younger generation the knowledge and values that determine the child's entire future, and creating a creative and developing environment for children in educational organizations - the main factors of their full-fledged education and an important means of comprehensive development of preschool children.
KEYWORDS: Preschool education, kindergarten, child, game, personality, development, upbringing.
АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматривается игровое обучение, развивающее детей в дошкольном образовании, и дается обширная информация о том, что дошкольное образование является главным фактором воспитания гармонично развитой личности, привития подрастающему поколению знаний и ценностей, определяющих все будущее ребенка, а создание творческой и развивающей среды для детей в образовательных организациях — это главные факторы их полноценного обучения и важное средство всестороннего развития детей дошкольного возраста.
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Дошкольное образование, детский сад, ребенок, игра, личность, развитие, воспитание.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim uyg'un rivojlangan shaxsni tarbiyalash, bolani butun kelajagini belgilab beradigan bilim va qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirishda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan muassasadir. O'yin maktabgacha ta"lim yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo'lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O'yin bolaning o'quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatning qay darajada shakllanganligimi belgilab beradi. O'yin bolalarning jismoniy rivojlanishi, maktabgacha ta'lim muassasasining ta'lim-tarbiya ishida, bolalarni aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Jamiyatning ma"naviy takomillashuvi unda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining mazmuni, shakl va mohiyatiga bog'liqdir[1]. Jadal rivojlanish yo'lidan borayotgan mustaqil davlatimizda yuksak ma'naviyatli, raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash ta'lim tizimi

[1] https://ares.uz/storage/app/media/2021/Vol_2_No_10/493-497.pdf

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

oldida turgan dolzarb vazifalardan sanaladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar uchun ijodiy rivojlantiruvchi muhitni yaratish ularning to'laqonli ta'lim olishlarining asosiy omillaridan biridir. Rivojlantiruvchi muhit deganda, nafaqat ta'limiy faoliyat va ko'rgazmali qurollar, darslik va o'quv-metodik qo'llanmalar kabi didaktik vositalar, mebel jihozlari va kompyuter texnikasini, balki ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o'zaro hurmati va ishonchga asoslangan ijodiy muhitni tushunish lozim. Shuningdek, rivojlantiruvchi muhit maktabgacha ta'lim tashkilotida bolani o'rab turgan, uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan hamma narsani, shu jumladan, binolarning rejalashtirilishi va o'lchamlari, hovlidagi o'yin maydonchasi, guruhdagi mebel, materiallar, jihozlar, o'yinchoqlar, atrofda o'sib turgan yashil makonni o'z ichiga oladi. Guruh xonasining estetik jozibador bezatilishi bolalarga ham, tarbiyachilarga ham o'zlarini qulay his etishlari uchun yordam beradi[2].

Ma'lumki, bolalarning asosiy vaqti o'yin bilan o'tadi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishining muhim vositasi, ularning asosiy faoliyati bo'lib hisoblanadi. O'yin jarayonida bola shaxsi faoliyat sub'ekti sifatida shakllana boshlaydi. O'yin uzoq davrlardan beri mashhur olimlar, pedagog psixologlar, faylasuflar, sotsiologlar, etnograflar va madaniyat arboblari diqqatini o'ziga qaratib kelingan dolzarb mavzudagi muamolardan biridir[3] .

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADALOGIYA

O'yin faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay, balki bolaning xulq-atvoriga ham ijobiy ta'sir qo'rsatadi. Bogcha yoshidagi bolalarda uz xulqini boshqarish ko'nikmalarini tarkib toptirishga bog'liq psixologik muammoni o'rgangan Z.V.Manuylekoning fikricha, biror maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulotga nisbatan o'yinda xulq ko'knikmalarini oldinroq va osonroq egallash mumkin, Ayniqsa, bu omil bogcha yoshi davrining xususiyati sifatida o'zining yorqin ifodasini topadi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z xo'lqini uzi boshqarish ko'nikmasi o'yin faoliyatida ham, boshqa sharoitlarda ham qariyb baravarlashadi. Ba'zida ular ayrim vaziyatlarda, masalan, musobaqa paytida o'yindagiga qaraganda yuqoriroq ko'rsatkichga ham erishishlari mumkin. Yuqoridagi mulohazalar asosida umuman aytganda, o'yin va o'yin faoliyati bolada o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning o'yin faoliyati mazmun jihatdan har kungi vaziyatga qarab o'zgarib turadi. O'yin doimo o'zgarib turganligi tufayli bola o„ynab charchamaydi, zerikmaydi.

Bolaning atrof muhitga, kishilarga, narsalarga va o'ziga bo'lgan turli munosabatlari mazmun hamda shakl jihatdan har doim o'zgarib turadigan jarayonida namoyon bo'ladi. Bolalarning turli ehtiyojlari, istak va qiziqishlari, qobiliyatlari hamda bir qancha shaxsiy fazilatlari o'yin jarayonida bevosita rivojlanadi. O'yin jarayonidagi bolalar faol faoliyatining psixik taraqqiyot uchun ahamiyati shundaki, bolalarning turli sifat va fazilatlari o'yin jarayonida faqat namoyon bo'libgina qolmasdan, bunda sifat va fazilatlar mustahkamlanadi, o'zlashtiriladi. Shuning uchun psixologik nuqtai nazardan oqilona, ya'ni, to'g'ri tashkil qilingan o'yin bola shaxsini har tomonlama o'stiradi va shuning bilan birga bolaning butun psixik jarayonlarida – sezish, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, hayol va irodani ildam rivojlanishiga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'laqonli maktab ta'limiga tayyorlashda kattalarning ular bilan mazmunli suhbatlari va bolalikni rivojlantiruvchi muhiti bilan boyitish zarur. Shunday qilib, rivojlantiruvchi muhit, o'yinchoqlar, o'yin vositalari, moddiy resurslar, rivojlanish markazlaridagi jihozlar, ko'rgazmali qurollar yordamida bolani aqliy, jismoniy, psixologik rivojlantirishga pedagogik ta'sir o'tkazishni anglatadi. Yaxshi jihozlangan rivojlantiruvchi muhitsiz

[2] https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0038/2.26.pdf
[3] http://www.yurii.ru/ref11/rl-1992008.php

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

to‘laqonli ta’limiy faoliyatni tashkil etishning iloji yo‘q. Chunki, uning asosiy poydevorini bolalar yangidan-yangi bilim oladigan “Rivojlantiruvchi markaz” tashkil etadi. Guruhda hech bir narsa shunchaki joylashtirilishi mumkin emas. Har bir buyum chuqur o‘ylangan holda, bolalarning bilimini oshirishga xizmat qiladigan, tarbiyaviy xarakterga ega bo‘lgan holda joylashtirilishi lozim, hattoki bir dona kartina bo‘lsa ham. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida ta’limiy faoliyat mazmuni quyidagi rivojlanish markazlari faoliyati bo‘yicha yuritilishini nazarda tutadi:

1. Qurish, konstruksiyalash va matematika markazi.
2. Syujetli-rolli o‘yinlar va drammalashtirish markazi.
3. Til va nutq markazi.
4. Fan va tabiat markazi.
5. San’at markazi.

Qurish, konstruksiyalash va matematika markazida turli xildagi va shakldagi predmetlar mavjud bo‘lib, bolalar o‘z xayollariga tayangan holda tarixiy obidalar, uylar, garaj, maktab, do‘kon, bog‘cha kabi inshootlarni bunyod etadilar. Qurilish bilan bog‘liq bo‘lgan bu yerda bolalarda quruvchi kasbiga nisbatan qiziqish, mehr va hurmat tarbiyalanib boradi.

Syujetli-rolli o‘yinlar va drammalashtirish markazida odob-axloq, tarbiyaviy jihatlar namoyon bo‘ladigan markaz hisoblanadi. Ushbu markaz qanchalik materiallarga boy bo‘lsa, undagi voqea-hodisalar ham shunchalik rang-barang bo‘ladi. Bu yerda bola hech kimga ko‘rsatmaydigan iqtidorini namoyon etishi, syujetdagi bosh qahramon kabi qo‘rqmas, dovyurak va mehribon bo‘lishga intilishini ko‘rsatishi mumkin. “Bir bor ekan, bir yo‘q ekan” deb boshlanuvchi va “murod-maqsadiga yetibdi” deb yakunlanuvchi ertaklarni bolalar sevib sahnalashtiradilar, undagi atributlar hech bir bolani befarq qoldirmaydi.

Til va nutq markazi - tinch burchak ko‘rinishidagi markaz hisoblanadi. Unda bolalarda kitobga bo‘lgan mehr va qiziqish paydo bo‘ladi. Tarbiyachi bolalarga kitobni ovoz chiqarib o‘qiydi, bolalar ko‘z o‘ngida voqea-hodisa gavdalanadi. Shuning bilan birga bolalarda tinglash malakasi ham shakllanadi. Ushbu markazning asosiy maqsadi bolalarni syujetlarni o‘ylab topish va ijro etish, hikoyalar eshitish, kichik hikoyalar tuzishga yo‘naltiradi.

Fan va tabiat markazi – ushbu markazda bolalar ilk tabiiy-ilmiy tushunchalar bilan tanishadilar. Bolalar olgan bilimlarini ushbu markazda amaliyotda sinab ko‘radilar. Shuning uchun bo‘lsa kerak bu markaz bolalarning eng sevimli markazlaridan biri hisoblanadi. Bu markaz orqali bolalar atrof-olamda uchraydigan narsa-predmetlar bir kun kelib tugashi, yo‘qolishi, kamayib ketishi mumkinligini bilib oladilar.

NATIJALAR

O’yin har bir yosh bosqichda bolaning tevarak atrofdagi dunyoni va kishilar o’rtasidagi munosabatlarni bilib olishni ifodalaydi. Bolaning moddiy dunyoga, kishilarga, o’z-o’ziga munosabati o’zgarayotgan o’yinda namoyon bo’ladi. Bolalarning ehtiyojlari, istak, qiziqish (havas)lari bevosita o’yinda ifodalanadi. O’yin bolalarning xayolparastligi tufayli narsalar va kishilar dunyosini ular uchun ma‟qul tomonga “o’zgartirish” imkoniyatini beradigan faoliyatdir. Ma’lumki, bolalarning asosiy vaqti o’yin bilan o’tadi. O’yin maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishining muhim vositasi, ularning asosiy faoliyati bo’lib hisoblanadi. O’yin jarayonida bola shaxsi faoliyat sub’ekti sifatida shakllana boshlaydi. O‘yin jarayonida maktabgacha yoshdagi bolaning barcha psixik jarayonlari tarkib topishida imkon buladi. Chunki o‘yin faoliyati bolalarni dikkat va xotirasi, nutki, xayoli, xissiyoti, mexnatga oid malakalari va kobiliyatlarinamoyon buladi. Rolli

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

o‘yin – maktabgacha yoshdagi bolalarning etakchi faoliyatidir. Rolli o‘yin mazkur yosh davridagi bolalarning eng muxim faoliyati bulib, ular bunday o‘yinda guyo katta yoshdagi odamlarning barcha vazifalari va ishlarini amalda bevosita bajaradilar. Shu boisdan o‘yin faoliyati uchun maxsus yaratiladigan sharoitlarda ijtimoiy muxit voealari, oilaviy turmush xodisalari, shaxslar aro munosabatlarini umumlashtirgan xolda aks ettirishga xarakat kiladilar. Bolalar kattalarning tur-mush tarzi, xis-tyygusi, uzaro muomala va mulokatlarining xususiyatlarini, uziga va uzgalarga, atrof-muxitga munosabatlarini yakkol voelik tarzida ijro etish uchun turli o‘yinchoklardan, shuningdek, ularning vazifasini utovchi narsalardan ham foydalanadilar. Ammo shuni ham alohida ta’kidlash joizki, ijtimoiy va maishiy voqelikning barcha jabxalarini kamrab oladigan rolli o‘yin ularda birdaniga zmas, balki turmush tajribasining ortishi, tasavvur obrazlarining kengayishi natijasida vujudga keladi, moxiyati va mazmuni jixatidan oddiydan murakkabga karab takomillashib boradi. Maktabgacha yoshda bolalarda intellektual rivojlanish o‘yin orqali amalga oshiriladi. O‘yinlar bolalarning tasavvurlarini rivojlantiradi, fikrlash va tushunish qobiliyatlarini kengaytiradi. Bundan tashqari, bolalar yangi bilimlarni va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi uchun ular bilan samimiy va izchil muloqotda bo‘lish muhimdir. Bolalarga muayyan bilimlarni qiziqarli va o‘ziga jalb qiluvchi tarzda taqdim etish ularning intellektual salohiyatini oshirishga yordam beradi. Maktabgacha yoshda intellektual-anglash malakalarining rivojlanishi — bu bolalarning aqliy salohiyatining shakllanishi va turli yosh davrlarida dunyoni tushunish, muammolarni hal qilish, mantiqiy fikrlash kabi ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar dunyoni sezgi organlari va aqliy faoliyatlari orqali o'rganadilar.

MUHOKAMA

Maktabgacha yoshdagi bolalarning etakchi faoliyati bu o‘yindir. Bog‘cha yoshidagi bolalarning o‘yin faoliyati masalasi asrlar davomida juda ko‘p olimlarning diqqatini o‘ziga jalb qilib kelmokda. Bog‘cha yoshidagi bolalar o‘zlarining o‘yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg‘a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar. Bolalarning o‘yinlari orkali ularda ijtimoiy foydali, ya’ni yuksak insoniy xislatlarni tarbiyalash mumkin. Bundan tashkari, agarda biz bolalarning o‘yini faoliyatlarini tashkaridan kuzatsak, o‘yin jarayonida ularning barcha shaxsiy xislatlari (kimning nimaga kuprok kizikishi, kobiliyati, irodasi temperamenti) yakkol namoyon bulishini kuramiz. Shuning uchun bolalarning o‘yin faoliyatlari ularni individual ravishda urganish uchun juda kulay vositadir. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar odatda uzlari yolgiz uynaydilar. Predmetli va konstruktorli o‘yinlar orkali bu yoshdagi bolalar uzlarining idrok, xotira, tassavur ,tafakkur xamda xarakat layokatlarini rivojlantiradilar. Syujetli rolli o‘yinlarda bolalar asosan uzlari xar kuni kurayotgan va kuzatayotgan kattalarning xatti –xarakatlarini aks ettiradilar. O‘yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bulgan ta’lim faoliyatiga tayyorlaydi. Ko‘pchilik psixologlar hamda pedagoglar o‘yinning psixologik masalalari bilan bevosita shug‘ullanib, o‘yinlarning bolani psixik kamol toptirishdagi ahamiyatiga alohida to‘xtalib o‘tganlar. Ma’lumki, o‘yin bola uchun voqelikni aks ettirishdir. Bu voqelik bolani qurshab turgan voqelikdan ancha qiziqarlidir. o‘yinning qiziqarliligi uni anglab etishning osonligidadir O‘yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo‘lgan tahlim faoliyatiga tayyorlaydi. Odam birdaniga ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishga kirisha olmaydi. Ijtimoiy tajribalarni faol egallash uchun odam avvalo etarli darajada nutqni egallagan bo‘lishi, ma’lum malakalar, uquvlar va elementar tushunchalarga ega bo‘lishi kerak bo‘ladi. Bularga bola o‘yin faoliyati orqali erishadi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-4

Bolaning aqliy o‘sishi haqida fikr yuritilganda, shuni ham aytib o‘tish kerakki, narsalarni yangi nom bilan atashda yoki yangacha nomlash holatidan kelib chiqib, sub’ekt o‘yin paytida faol harakat qilishga urinadi. Chunki u moddiy narsalarga asoslangan harakat rejasidan tasavvur qilinayotgan, fikr yuritilayotgan jismlar mohiyatini aks ettiruvchi harakat rejasiga o‘tadi. Bola jismlarning moddiy shaklidan birdaniga hayoliy ko‘rinishiga utishida unga tayanch nuqtasi bulinji kerak, vaholanki shunday tayanch nuqtasi vazifasini o‘tovchi narsalarning aksariyatidan o‘yinda bevosita, ob’ekt sifatida foydalaniladi. O‘yin faollyatida mazkur jismlar qandaydir alomatlarni aks ettiruvchi sifatida emas, balki ana shu tayanch narsalar to‘grisida fikrlash uchun xizmat qiladi, shuningdek, tayanch nuqtasi harakatning yaqqol narsa bilan bogliq jihatini aks ettiradi. Yuqorida aytilganidek, narsa bilan o‘yin harakatlarining takomiillashuvi harakat shakli xususiyati, bosqichi kabilarni qisqartirmsh va umumlashtirish hisobiga amalga oshiriladi. O‘yin harakatlarining qisqarishi va umumlashuvi ularning aqliy ko‘rinishidagi mantaqan izchil, yig‘iq shaklga o‘tishning asosini tashkil qiladi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki o’yinning bola tarbiyasidagi asosiy roli bolalar muassasasi hayotini u bilan boyitishni talab etadi. Shuning uchun ham o’yin bolalar hayotining kun tartibiga doimiy qilib kiritilgan. O’yinlar uchun nonushtagacha va undan keyin, mashg„ulotlardan so’ng, sayrlardan so’ng, kechqurun uyga ketishdan oldin vaqt ajratiladi. Ertalab o’ta harakatchanlikni talab qilmaydigan o’yinlar uchun sharoit yaratish maqsadga muvofiqdir. Mazmunan ko’proq didaktik o’yinchoqlar, stol ustida o’ynaladigan stol-bosma o’yinlari, syujetli-rolli o’yinlarni o’ynagan ma`qul. Sayr davomida harakatli o’yinlarni, qurish-yasash o’yinlarini tashkil etish foydalidir. Kun tartibida o’yin uchun maxsus vaqt belgilash o’yinning mustaqil faoliyat sifatida mavjud bo’lishining va uni bolalar hayotini tashkil etish shakli sifatida, tarbiya vositasi sifatida qo’llanilishining eng muhim pedagogik shartidir. Qolaversa maktabgacha yoshdagi bolalarda intellektual-anglash malakalarini rivojlantirish masalasi har tomonlama muhim va dolzarbdir. Ushbu jarayonning samarali amalga oshirilishi uchun bolalar bilan o‘ynash, pedagogik metodlar va ijtimoiy-madaniy muhitni hisobga olish lozim. o‘quvchilarning intellektual rivojlanishi kelajakda ularning bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi va jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkoniyatlarini yaratadi.

ADABIYOTLAR RO’YHATI

1. Karimova, G. (2018). Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Ta’lim nashriyoti.
2. Asadov, M. (2021). Bolalar psixologiyasi: Maktabgacha yoshda rivojlanish jarayonlari. Tashkent: Science Education.
3. Kamilova, N. (2020). Maktabgacha ta’limda intellektual rivojlanishning asosiy metodlari. Toshkent: O‘qituvchi.
4. Jahonov, S. (2019). O‘yin metodikasi va uning bolalar rivojlanishidagi roli. Tashkent: Academy Publishing.
5. Bogdanova, O. (2017). Pedagogika va psixologiyada yangi yondashuvlar. Moskva: Akademiya